

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI
YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

“TASDIQLAYMAN”
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti
direktorining birinchi o‘rinbosari



R.Xursanov
2025-yil 23-iyul

**“Advokatlarning malakasini oshirish” o‘quv kursidan
suhbat va kazus shaklida yakuniy sinov imtihonini o‘tkazish
bo‘yicha**

METODIK MATERIALLAR

*Metodik materiallar 2025-yil 23-aprelda tasdiqlangan
o‘quv dasturiga asoslanib tayyorlangan*

**“Advokatlarning malakasini oshirish” o‘quv kursidan suhbat
shaklida yakuniy sinov imtihonini o‘tkazish bo‘yicha
METODIK KO‘RSATMALAR**

“Advokatlarning malakasini oshirish” o‘quv kursi (keyingi o‘rinlarda – o‘quv kursi) bo‘yicha malaka oshirgan tinglovchilarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

huquqiy masalalar bo‘yicha maslahatlar va tushuntirishlar, qonun hujjatlari yuzasidan og‘zaki va yozma ma’lumotnomalar bera olish;

huquqiy xususiyatdagi arizalar, shikoyatlar va boshqa hujjatlarni tuza olish;

fuqarolik, iqtisodiy va ma’muriy ishlari hamda ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sudda, boshqa davlat organlarida, jismoniy va yuridik shaxslar oldida vakillikni amalga oshirish;

jinoiyat ishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov bosqichida va sudda himoyachi, jabrlanuvchining vakili, fuqaroviy da’vogar, fuqaroviy javobgar sifatida ishtirok etish;

jamoani shakllantirish, liderlik va muloqot qilish va rejalashtirish ko‘nikmalariga egabo‘lish;

yuksak ma’naviy-ahloqiy sifatlarga ega bo‘lish;

sharoitni obyektiv nazorat qilish va baholash qobiliyatining mavjudligi, huquq normalarini to‘g‘ri tushunish, ularni adolat prinsiplari asosida qo‘llay olish;

kasbiy faoliyat sohasiga oid asosiy atamalar hamda tushunchalarini bilishi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llay olish;

tadbirkorlik faoliyatiga yuridik xizmat ko‘rsata olish, xakamlik sudida va xalqaro tijoratarbitrajida (sudida) vakillikni amalga oshira olish;

Advokatlik kasb etikasi qoidalarini bilish.

MAVZULAR BO‘YICHA YAKUNIY NAZORAT

Yakuniy sinov imtihoni advokatura faoliyatini takomillashtirish va kafolatlarini kengaytirish yo‘nalishlari va istiqbollari, fuqarolik va iqtisodiy ishlarda advokat ishtirokining o‘ziga xos xususiyatlari, ma’muriy va jinoiy sud ishlarini yuritishda advokatning ishtiroki, advokatlarga qo‘yiladigan zamonaviy talablar va maxsus bilim talab etiladigan sohalar hamda inson huquqlarini ta’minlashda advokaturaning roli va bu sohasidagi xorijiy tajribaga oid nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar darajasiga qarab baholash asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi 171-son qarori bilan tasdiqlangan “Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida mutaxassislarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish tartibi to‘g‘risida nizomi”ga asosan malaka oshirish kurslari o‘quv dasturiga muvofiq belgilangan mavzular (modullar) bo‘yicha yakuniy sinov imtihonini topshirish bilan yakunlanadi.

Yakuniy sinov imtihonini tashkil etish va o‘tkazish uchun Institut direktorining buyrug‘i bilan komissiya tashkil etiladi.

Yakuniy sinov imtihoni natijalari komissiya a’zolari tomonidan imzolanadigan qaydnoma varaqalari bilan rasmiylashtiriladi.

Yakuniy sinovi tinglovchilar o‘quv kursiga taalluqli barcha materiallarni o‘rgangandan so‘ng o‘tkaziladi.

Yakuniy sinov imtihoni jarayonida tinglovchilar bilimini baholash usullari tinglovchining bilim darajasi – tanqidiy va tahliliy fikrlash, og‘zaki yoki yozma shaklda o‘z fikrlarini izchil va konstruktiv bayon qilish ko‘nikmalarini aniqlashdan iboratdir.

YAKUNIY SINOV IMTIHONINI O‘TKAZISH TARTIBI

Yakuniy sinov imtihoniikki bosqichli: kazu va suhbat shaklida amalga oshiriladi.

Yakuniy sinov imtihoni Pedagoglar markazi tomonidan tegishli kursning mavzulari bo‘yicha ishlab chiqilgan kazu va savollar asosida o‘tkaziladi.

Suhbat paytida komissiya a‘zolari tomonidan o‘tilgan mavzular bo‘yicha qo‘shimcha savollar berilishi mumkin.

O‘quv kursi bo‘yicha yakuniy sinov, tinglovchilarga bilimni baholash mezonlarini e‘lon qilishdan boshlanadi.

Yakuniy sinov baholash mezonlari quyidagicha belgilanadi:

Baholash turi	Baholash ko‘rsatgichi	
Yakuniy baholash	O‘tdi	O‘tmadi

Tinglovchi quyidagi holatlarda yakuniy sinov imtihonidan “O‘tdi” deb hisoblanadi:

- ☐ mustaqil mushohada qilish;
- ☐ amalda qo‘llay olish;
- ☐ mohiyatini tushuntirish;
- ☐ bilish, aytib berish;
- ☐ tasavvurga ega bo‘lish.

Tinglovchi quyidagi holatlarda yakuniy sinov imtihonidan “O‘tmadi” deb hisoblanadi:

- ☐ mohiyatni to‘liq tushuntirmaslik;
- ☐ aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik;
- ☐ bilmaslik.

**“Advokatlarning malakasini oshirish” o‘quv kursidanyakuniy sinov
imtihonini o‘tkazish uchun**

KAZUSLAR

1. Jasur, Navoiy viloyatidagi davlat muassasasida ishlovchi xodim, o‘zining shaxsiy fikrini ijtimoiy tarmoqda bildirgani uchun muassasa rahbari tomonidan og‘zaki ogohlantiriladi. Undan keyin, Jasurga ma‘muriy jazo qo‘llanish ehtimoli borligi aytilgan.

Jasur o‘z fikrini bildirganida hech qanday haqorat yoki yolg‘on ma‘lumotlar tarqatmagan, balki jamoatchilik uchun muhim bo‘lgan masala — atrof-muhit ifloslanishi haqida o‘z nuqtayi nazarini bildirgan edi. U rahbarining bu harakatlari qonunga zid deb hisoblab, to‘g‘ridan-tog‘ri O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasiga (fikir erkinligi huquqi) tayanadi va ma‘muriy jazoga qarshi sudga murojaat qiladi.

Konstitutsiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita amal qilishi qanday?
Vaziyatga huquqiy baho bering.

2. 2024-yilning mart oyida advokat A. Raxmatov ustidan uning ishonch bildiruvchisi tomonidan advokatlik siri va kasb etikasi buzilganligi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmasiga shikoyat kelib tushdi. Malaka komissiyasi intizomiy ish yuritishni boshlab, uning litsenziyasini vaqtincha to‘xtatish bo‘yicha qaror qabul qildi. Advokat A. Raxmatov ushbu qarorga norozi bo‘lib, litsenziyasining tiklanishini so‘rab, tegishli hujjatlar bilan Oliy malaka komissiyasiga murojaat qiladi. Oliy malaka komissiyasi advokatning litsenziyasini tiklash masalasini ko‘rib chiqmasdan, uning arizasini asossiz rad etadi. Advokat O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy sud ish yuritish kodeksiga asosan ushbu harakat ustidan sudga da‘vo arizasi kiritadi.

Sud majlisida aniqlanishicha, advokat A. Raxmatovga nisbatan qabul qilingan malaka komissiyasi qarorida qonuniy asoslar yetarlicha asoslantirilmagan, litsenziya to‘xtatilgan davrda u tomonidan kamchiliklar bartaraf etilgan va takroriy huquqbuzarlik sodir etilmagan. Shuningdek, sudga Oliy malaka komissiyasining rad etish qarorining asoslovchi dalillari taqdim etilmagan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

3. Saida huquqshunos diplomiga ega bo‘lib, O‘zbekiston advokatlar palatasida ro‘yxatdan o‘tib, advokatlik faoliyatini boshlagan. Uning mijozlaridan biri - “GlobalLink Trade” MChJ -xorijiy hamkor bilan tuzilgan shartnomaning buzilishi bo‘yicha Germaniya sudida ish yuritish kerakligini ma‘lum qildi. Saida bu ishda mijozning manfaatlarini himoya qilmoqchi, ammo xorijiy sudda ishtirok etish tartibi va bunga huquqiy asoslar haqida aniq ma‘lumotga ega emas. Shuningdek, advokatlik faoliyati bo‘yicha yaqinda kiritilgan yangi o‘zgarishlardan ham xabardor bo‘lishni istaydi.

Advokat bunday vaziyatda qanday yo‘l tutishi kerak.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

4. Davlat tashkilot iqtisodiy bo‘lim boshlig‘i S.Q. xizmat mashinasini har hafta oxirida shaxsiy sayohatlar uchun foydalanadi, yoqilg‘i xarajatlari esa tashkilot hisobidan to‘lanadi.

Iqtisodiy bo‘lim boshlig‘i S.Q. harakatida qanday jinoyatlarning alomatlari bor?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

5. Advokat Dilfuza xonimga “UzBuild Group” MChJ rahbari murojaat qiladi. Korxona qurilish materiallari yetkazib beruvchi kompaniya bilan shartnoma bo'yicha bahsli vaziyatga duch kelgan. Boshqa tomon to'lovni o'z vaqtida talab qilmoqda, ammo “UzBuild Group” mahsulot kamsitilgan va kech yetkazilganini asos qilib, mablag' to'lamaslikka harakat qilmoqda. Mazkur nizo fuqarolik-huquqiy tusga ega bo'lib, Iqtisodiy sudga oshiriladi. Sud jarayonida Dilfuza xonim mijoz manfaatlarini himoya qilishi, dalillar keltirishi, huquqiy xulosalar berish va sud muzokarasida qatnashishi kerak. Ammo u muzokaradagi nutq shakli, muddat va usullar borasida ma'lumotlarni to'liq yig'ib chiqmoqchi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

6. Kompaniyalar “UzBuild Group” MChJ – qurilish materiallari yetkazib beruvchi kompaniya, “MegaStroy Invest” MChJ – ko'p qavatli turar-joy qurish bilan shug'ullanuvchi investor-kompaniya. 2024-yil oktyabr oyida “MegaStroy Invest” kompaniyasi “UzBuild Group” bilan 2 milliard so'mlik qurilish materiallari yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzdi. Shartnomada belgilangan muddat: 2024-yil 25- noyabrgacha.

Shartnoma shartiga ko'ra: Xaridor buyurtmaning 30% ini oldindan to'laydi (600 mln so'm), Yetkazib beruvchi belgilangan muddatda barcha tovarlarni yetkazib berishi shart, Shartnomada neustoyka (penya) 0,5% har bir kechikkan kun uchun, Shuningdek, yetkazib berish kafolati sifatida garov sifatida kompaniyaning 1 ta yuk mashinasi shartnomaga ilova qilingan. “UzBuild Group” belgilangan muddatda materiallarni yetkazib bermadi. Faqat 40% qismi (800 mln so'mlik) yetkazib berildi, qolgan qismi bir oyga kechikdi. Binobarin, “MegaStroy Invest” qurilish ishlarini o'z vaqtida yakunlay olmadi. “UzBuild Group” kechikishni transport muammolari va logistika bilan bog'liq deb asosladi.

Ammo “MegaStroy Invest” kompaniyasi sudga murojaat qilib, qolgan materiallarni tezkor yetkazib berish, kechiktirilgan kunlar uchun neustoyka (penya) undirish, garovni qoplash sifatida yuk mashinasiga egalikni talab qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

7. “Baraka Tex” MChJ ikki yil davomida moliyaviy qiyinchilikka duch kelib, kreditorlar oldidagi majburiyatlarini bajara olmayapti. Boshqaruvchilar korxonani qarzdan qutqarish uchun yangi investor izlashga harakat qilgan, ammo natija chiqmagan. Bir necha kreditor iqtisodiy sudga murojaat qilib, korxonani bankrot deb e'lon qilishni so'raydi. Advokat Zohidjon “Baraka Tex” rahbariyati tomonidan jalb etiladi.

Ushbu ishda advokat qaysi holatlarga e'tibor qaratishi kerak.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

8. “BARAKA INVEST” AJning aksiyadori Farhodov 2024-yil aprel oyida umumiy yig'ilish bo'lib o'tganidan keyin xabar topdi. U jamiyatdan yig'ilish haqidagi ma'lumotlar va bayonnomani talab qildi, lekin unga hech qanday axborot berilmadi. Bu yig'ilishda jamiyat ustaviga o'zgartishlar kiritilgan va dividend to'lanmasligi haqida qaror qabul qilingan.

Farhodovning qanday huquqlari buzildi? Ushbu qarorlarning haqiqiyliги shubha ostiga qo'yilishi mumkinmi? Farhodov qanday huquqiy vositalardan foydalanishi mumkin?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

9. “ORIENT TRADE” MChJ 2023-yilda ikkiga bo‘linish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Ushbu qaror ta’rischilarning faqat 55% ovozi bilan qabul qilingan. Ustavda esa “qayta tashkil etish faqat 75% ovoz bilan amalga oshirilishi mumkin” deb ko‘rsatilgan. Ta’rischi M.Yunusov bu qarorni haqiqiy emas deb hisoblab, sudga da’vo kiritdi.

Ustavdagi talabga rioya qilinmagan qaror qanday baholanadi? Qayta tashkil etishga qarshi ta’rischining da’vosi asoslimi? Sud qanday qaror chiqarishi mumkin?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

10. Direktor H.Toshev “MEGA INNOVATION” AJda o‘zining qarindoshiga qarashli “TechLine” kompaniyasi bilan 5 milliard so‘mlik shartnoma imzoladi. U bu haqida aksiyadorlar kengashiga ma’lum qilmagan. Keyinroq ma’lum bo‘lishicha, “TechLine” xizmatlar narxini ikki baravar yuqori baholagan. Aksiyadorlar sudga da’vo kiritdi.

Bu holatda qanday manfaatlar to‘qnashuvi yuz bergan? Bu bitimni qanday huquqiy baholash mumkin? Aksiyadorlar qanday huquqlarga ega?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

11. Katta kompaniyalarning birida hisobchi bo‘lib ishlovchi A.Jumayeva ancha vaqtdan beri ish beruvchining unga munosabati o‘zgarib qolganligidan, ya’ni oilaviy hayotiga aralashib korxonada u bilan bog‘liq barcha jarayonlarni uning turmush o‘rtog‘ini habardor qilib turishidan va oqibatda oilaviy janjallarga sababchi bo‘lib qolayotganligidan hamda doimiy kamsitishlaridan qattiq norozi bo‘lib mehnat nizolari komissiyasiga murojaat qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

12. Zulfiya ismli xodim bir yildan beri xususiy o‘quv markazida administrator lavozimida ishlaydi. U o‘zining boshqa viloyatga ko‘chib o‘tishi munosabati bilan mehnat shartnomasini bekor qilish istagini bildiradi. Zulfiya ish beruvchiga yozma ariza bilan murojaat qiladi. Biroq ish beruvchi unga “hali o‘rningga boshqa odam topmadik, sabr qil” deb, arizasini ko‘rib chiqishni cho‘zmoqda. Zulfiya esa, ariza yozganiga 10 kundan oshganini va uning ko‘chish sanasi yaqinlashayotganini aytib, aniq javob berilishini talab qilmoqda.

Zulfiya qonuniy ravishda mehnat shartnomasini bekor qilishga haqlimi? U qanday tartibda ishni tashlab ketishi mumkin?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

13. Farg‘ona viloyatida istiqomat qiluvchi fuqaro Abdulazizov Baxtiyor 2015 yilda Quva tumanida joylashgan 0,15 gektarlik xususiy turar joy qurish uchun ajratilgan yer uchastkasini mahalliy hokimiyat qaroriga asosan oladi. U yerda 2016 yili turar joy qurib yashay boshlaydi. 2023 yilda shu hududda yashovchi boshqa bir fuqaro – Rahmatova Mahliyo sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilib, mazkur yer uchastkasi aslida uning ota-bobolaridan qolgan meros yer ekanini va 1990 yillarda noto‘g‘ri rasmiylashtirilganini, Abdulazizovning bu yerga mulk huquqi yo‘qligini ma’lum qiladi. Da’vogar ushbu yer uchastkasi mening ota-bobolarimdan meros tarzida qolganligi hamda hujjatlar arxivda yo‘qolgan bo‘lishi mumkinligini aytgan. Javobgar esa yerni qonuniy tarzda mahalliy hokimiyat qarori bilan olganligini hamda davlat reyestrda uning nomiga

rasmiylashtirilganligini aytgan. Shuningdek, quruv ishlari va yashash uchun katta mablag' sarflaganligini ta'kidlagan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

14. Eshmatov o'z farzandi nomiga bankda hisob raqam ochib, katta miqdordagi pul mablag'ini o'tkazdi. Oradan bir qancha vaqt o'tib, Eshmatov nikoh shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi da'vo ariza bilan sudga murojaat qilib, mol-mulkni bo'lishni, shu jumladan, farzand nomidagi omonat mablag'larini ham hisobga olishni so'radi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

15. Sud Sidorov va Ivanovanning mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi ishini ko'rib chiqish jarayonida, Ivanova transport vositasini unga asl holida berishni so'radi. Biroq aniqlanishicha, Ivanovada haydovchilik guvohnomasi mavjud emas.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

16. Eshmatova va Toshpulatovlar 1943-yildan buyon umumiy ro'zg'or yuritib kelmoqdalar, biroq ular o'rtasida rasmiy nikoh qayd etilmagan. Bugungi kunda ular tomonidan mol-mulklarni bo'lish to'g'risida da'vo arizalari berilgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

17. Fuqaro A. sug'urta faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya olgan va 4-yildan buyon o'z faoliyatini amalga oshirib kelayotgan edi. 2024-yil 13-dekabr kuni fuqaro A. Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan chaqirilgan va o'z faoliyatida litsenziya talablarini bir necha marta buzib kelayotganligini aytib, litsenziyani bekor qilish to'g'risida qaror chiqarishini aytgan. Fuqaro A. mazkur holatlar bo'yicha o'z tushuntirishlarini berishni so'ragandi Agentlikning mas'ul xodimi uni tinglashdan bosh tortgan. Fuqaro bundan norozi bo'lib ma'muriy ishlar bo'yicha Toshkent shahar sudiga murojaat qilgan.

Ushbu xolatda O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonun tatbiq etiladimi? Agar ushbu holatga O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonun tatbiq etilsa, qonunning qaysi prinsipi buzilgan deb o'ylaysiz? Mazkur holatda fuqaro A. ma'muriy sudga murojaat qilishi qonununiymi?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

18. Arizachi Xasanov Nurgali Utegenovichlar javobgar O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Toshkent viloyati Qibray tuman bo'limiga nisbatan shikoyat arizasi bilan tegishli ma'muriy sudga murojaat qilib, pensiyaga chiqish maqsadida 2024-yilning 24 dekabr kunida yozma ravishda Qibray tuman pensiya jamg'armasiga ishga doir pensiya tayinlanishini so'razgan arizasidagi 20.04.1994-yildan 02.04.1996-yilgacha va 06.01.1997-yildan 11.10.2001-yilgacha ishlagan davrlari bo'yicha o'z vaqtida tushuntirish berilmaganligi va ushbu holat uning aybi emasligini inobatga olib, unga 2024-yilning 24 dekabrda ishga doir pensiya tayinlash majburiyatini javobgar zimmasiga yuklashni so'ragan.

Ushbu holatda Ma'muriy sud harakatini huquqiy asoslar yordamida yoritib bering. Pensiya jamg'armasi Qibray tuman bo'limi ma'muriy organ hisoblanadimi? Fuqaro Hasanov ma'muriy sudga to'g'ri murojaat qilganmi?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

19. Advokat Eshmatov jinoyat ishida himoyachi sifatida fuqaro Toshmatovning himoyasini qabul qildi. Dastlabki tergov jarayonida advokat tergovchiga o'z himoyasidagi shaxs ishtirok etgan tergov va protsessual harakatlar bayonnomalarini ko'rish va nusxalarini olish bo'yicha iltimos bilan murojaat qildi, shu jumladan so'roq, tintuv, olib qo'yish va ushlab turish bayonnomalarini. Tergovchi dastlabki tergov tugamaguncha tergov sirini saqlab qolish zarurligiga tayanib iltimosnomani rad etdi.

Tergovchining harakatlarining qonuniyligini baholang. Advokat o'z himoyasidagi shaxsning huquqlarini himoya qilish uchun qanday harakatlarni amalga oshirishi kerak?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

20. E. ismli shaxs savdo markazida o'g'irlik sodir etganlikda gumonlanib, ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan qo'lga olindi va shaxsiy tintuv o'tkazilib, undan 5 million so'm pul miqdoridagi mablag'olindi. Sudda E. ning himoyachisi mazkur tintuv video ideoyozuv orqali qayd etilmaganligi bois nomaqbul deb topilishi lozim deb iltimosnoma kiritdi.

Himoyachining talabi to'g'rimi? Agar to'g'ri bo'lsa, ushbu holatda dalilni nomaqbulligi nimada ifodlanadi?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

21. Holat: Advokat Eshmatov jinoyat ishida himoyachi sifatida odam o'ldirishda (JK 97-moddasi) ayblangan fuqaro Toshmatov bilan birgalikda dastlabki tergov jarayonida advokat tergovchi orqali prokurorga aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv tuzish haqida iltimosnoma kiritdi.

Himoyachining harakatlarini baholang. Qonun talablariga rioya etilganmi?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

22. O'zbekiston Respublikasida jinoyat sodir etishda JKning 167-moddasi 3-qismi g) bandi bilan ayblanayotgan va sirtdan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi S.Salimov Xitoy Xalq Respublikasida ekanligi sababli XXRga tegishli organlariga S.Salimovni ushlab berish to'g'risida so'rov yuborildi va O'zbekistonga ekstraditsiya qilindi. Sud S.Salimovga nisbatan jinoyat ishini ko'rib chiqib, uning harakatlarini JKning 167-moddasi 3-qismi g) bandidan JKning 167-moddasi 2-qismi a) bandiga qayta kvalifikatsiya qilib, 4 yil 6 oy muddatga OMQ jazosi tayinladi. Prokuror sud hukmidan norozi bo'lib, apellatsiya protesti kiritdi. Protestda S.Salimov xalqaro so'rovga asosan JKning 167-moddasi 3-qismi g) bandi asos qilinib ushlab kelinganligini, sud faqatgina xorijiy davlatdan ushlab berish so'ralgan modda bilangina javobbarlikka tortishi mumkinligini, agar boshqa moda bilan javobgarlikka tortish yoki ayblanayotgan moddani qayta kvalifikatsiya qilish zarur bo'lsa, bu haqida prokurorga xabar berilishi kerakligini, buning uchun prokuror belgilangan tartibda xorijiy davlatga so'rov berishi kerakligini, rozilik olingandan keyingina qayta malakalash mumkinligini, xalqaro shartnomada ham bu qoida nazarda tutilganligini vaj qilib keltirdi.

Prokurorning vajlari qanchalik asosli? Sudning qarori asoslimi?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

23. Fuqaro B.A. ichki ishlar xodimlari tomonidan spirtli ichimlik iste'mol qilgan holda jamoat joyida yurish va fuqarolarga bezorilik qilganlikda ayblanib, MJtKning 183-moddasi (mayda bezorilik) asosida ushlab turiladi. Fuqaro B.A. advokat bilan ta'minlanishni so'raydi, biroq IIB xodimlari bu talabni e'tiborsiz qoldiradi. Keyinchalik B.A.ning yaqinlari tomonidan yollangan advokat sud majlisida ishtirok etadi va e'tirozlarni bildiradi.

Advokat ichki ishlar xodimlari harakatlari ustidan e'tirozi asoslimi? Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishda advokat qaysi paytdan boshlab qatnashishi mumkin?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

24. Fuqaro M.J. fuqaro A.N. foydasiga 100 million so'm miqdoridagi qarzni undirish bo'yicha sud qaroriga asosan majburiy to'lovni amalga oshirishi lozim edi. Toshkent shahar tumanlararo fuqarolik sudining qaroriga asosan majburiy ijro byurosi (MIB) tomonidan ijro hujjati rasmiylashtiriladi va ijro ishi ochiladi. Biroq qarzdor M.J. o'z mol-mulkini boshqa shaxs nomiga rasmiylashtirib yuboradi va ataylab ijrodan bo'yin tovlashga urinadi.

Fuqaro M.J.ning harakati ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladimi?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

25. Toshkentdagi "TechExport" MChJ kompaniyasi rahbari Aziz Karimov Janubiy Koreyalik "SeoulTech" firmasi bilan yangi shartnoma tuzish jarayonida murakkab muammoga duch keldi. Koreyalik hamkorlar blockchain texnologiyasi asosida smart-shartnoma tuzishni talab qilishdi, ammo O'zbekiston qonunchiligida bunday shartnomalarning huquqiy maqomi aniq belgilanmagan edi. Mahalliy advokat bu masala bo'yicha tajribaga ega emasligini ma'lum qilgach, Aziz AQShdagi "GlobalLegalNet" platformasi orqali xalqaro huquq mutaxassisi Maykl Braun bilan bog'landi. Maykl masofaviy konsultatsiya orqali muammoni tahlil qilib, O'zbekiston qonunchiligiga zid kelmaydigan gibrid model ishlab chiqdi. Unda smart-shartnoma texnik ijro vositasi sifatida ishlatiladi, asosiy huquqiy majburiyatlar esa an'anaviy shartnoma orqali tartibga solinadi. Sun'iy intellekt dasturi yordamida ikki mamlakat qonunchiligini taqqoslab, maxsus klauzulalar yaratildi. Videokonferensiya orqali uchrashuvlar o'tkazildi, hujjatlar xavfsiz bulutli xizmat orqali almashildi, barcha kelishuvlar blockchain yordamida saqlanadi. Natijada "TechExport" nizoni muvaffaqiyatli hal qilib, yangi xalqaro hamkorlik o'rnatdi va biznesini 35% ga kengaytirdi. Bu holat raqamli advokaturaning zamonaviy tijorat munosabatlaridagi ahamiyatini va texnologiyalar yordamida murakkab huquqiy masalalarni hal etish imkoniyatlarini ko'rsatdi.

Smart-shartnomalarning O'zbekiston qonunchiligi bilan uyg'unlashtirilishi jarayonida qanday huquqiy muammolar yuzaga kelishi mumkin va ularni hal etish uchun qanday qo'shimcha normativ aktlar kerak? Xalqaro raqamli advokatura xizmatlaridan foydalanishda mijozlarning ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlash uchun qanday himoya choralari ko'rilishi kerak?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

26. Toshkent shahrida "SmartDrive Uzbekistan" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan avtonom taxi xizmati sinovdan o'tkazilmoqda edi. Kompaniya direktori Jamshid Ibragimov yangi loyihaning muvaffaqiyatli boshlanishi bilan faxrlanayotgan edi, chunki avtonom taksilar shaxsiy haydovchilarga qaraganda 60% kam yo'l-transport hodisalariga

sabab bo'lgan edi. Biroq bir kuni kutilmagan vaziyat yuz berdi. "AutoBot-07" raqamli avtonom taksi Chilonzor tumidagi Bunyodkor prospektida harakat qilayotganda, to'satdan yo'lga yugurgan 8 yoshli bola Anvar Karimovni urib yubordi. Bolaning oyog'i sinib, u kasalxonaga yotqizildi. Hodisa joyida politsiya xodimlari taksi ichidagi kameralar va sensorlar ma'lumotlarini tekshirdilar. Ma'lum bo'lishicha, avtonom sistema bolani 2.3 soniya oldin sezgan, lekin dastur ikki xil yechim o'rtasida "qaror qabul qilishda" ikkilanib qolgan edi: keskin tormozlash yoki o'ng tomonga burilish. Tormozlash holati orqadagi transport vositasiga urilish xavfini tug'dirgan, o'ngga burilish esa piyodalar yo'lagidagi boshqa odamlarga zarar yetkazish ehtimolini yaratgan edi. Natijada sun'iy intellekt tizimi eng kam zarar yetkazuvchi variantni tanlagan, ammo bolaga tegib qolishdan qochib qutula olmagan. Bola ota-onasi Karimov oilasi kompaniyadan zarar qoplashni talab qilishdi, ammo "SmartDrive Uzbekistan" o'z javobgarligini rad etdi. Kompaniya yuristlari avtonom taksi barcha qoidalarga muvofiq harakat qilganini, dastur eng optimal yechimni tanlaganini va bu hodisa "force-majeur" holatiga kirishi mumkinligini ta'kidladilar. Vaziyat yanada murakkablashdi, chunki O'zbekiston qonunchiligida avtonom transport vositalari tomonidan keltirilgan zararlar uchun javobgarlik aniq belgilanmagan edi. Sud jarayonida texnik ekspertiza o'tkazildi va ma'lum bo'ldiki, taksi dasturi AQShlik "NeuralDrive" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan, Xitoyda ishlab chiqarilgan sensorlar o'rnatilgan va Germaniya texnologiyalari asosida sun'iy intellekt algoritmi yaratilgan.

Mahkama jarayonida bir nechta muhim savol paydo bo'ldi: avtonom taksi "shaxs" sifatidami yoki "mulk" sifatidami ko'rilishi kerak, dastur yaratuvchi kompaniya javobgar bo'ladimi yoki foydalanuvchi kompaniya, xalqaro texnologiyalar qo'llanilganda qaysi mamlakat qonunlari amal qiladi. Yakunida sud Karimov oilasi foydasiga qaror chiqarib, "SmartDrive Uzbekistan" kompaniyasiga zarar qoplashni buyurdi, chunki avtonom sistema hali ham kompaniya mulki hisoblanadi va u o'z texnologiyasining xavfsizligi uchun to'liq javobgar. Bu ish O'zbekistonda avtonom transport vositalari uchun maxsus qonunchilik ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi va parlamentda yangi qonun loyihasi muhokama qilina boshlandi.

Avtonom transport vositalari tomonidan yetkazilgan zararlar uchun javobgarlikni aniqlashda dastur yaratuvchi kompaniya, foydalanuvchi kompaniya va avtonom tizimning o'zi o'rtasida javobgarlik qanday taqsimlanishi kerak?

Sun'iy intellekt tizimlarining "axloqiy qarorlar" qabul qilish algoritmlari qanday ishlab chiqilishi va nazorat qilinishi kerak, ayniqsa insonlar hayoti xavf ostida bo'lgan holatlarda?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

27. 2024-yil oktabr oyida O'zbekistonlik yozuvchi va blogger Shahzoda Yunusova o'zining shaxsiy veb-saytida va YouTube kanal orqali elektron kitob chiqardi: «Mening hayot yo'lim». Kitob yangi mualliflar orasida katta qiziqish uyg'otdi va internetda keng tarqaldi. Bir necha hafta o'tib, muallif aniqladi: kitob to'liq holda PDF formatda turli telegram kanallar, pirat saytlar va forumlarda hech qanday ruxsatsiz tarqatilmoqda. Ba'zi holatlarda, kitobdan parchalar boshqa shaxslar tomonidan o'z nomlarida qayta chop etilgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

28. 2024 yilning 2-choragida Davlat soliq organlari tomonidan "Yorqin Savdo" MChJ da rejali tekshiruv o'tkazildi. Tekshiruv davomida quyidagi qonunbuzarliklar aniqlandi:

1. Kompaniya savdodan tushgan daromadning bir qismini hisobga olmagan va realizatsiya qilingan tovarlar bo'yicha 400 mln so'mlik QQS yashirilgan.

2. Tashkilotning 6 nafar xodimga to'lovlar rasmiy oylik hisob-kitob qog'ozlarida ko'rsatilmagan amalga oshirilgan, bu orqali daromad solig'i va ijtimoiy soliq to'lovlari to'lanmagan.

3. Ayrim tushumlar rasmiy buxgalteriya hisob-kitobida aks ettirilmasdan (naqd pul aylanmasi hisobga olinmagan) qo'lda kvitansiya asosida qabul qilingan.

Tashkilot va Soliq organlarining hatti-harakatlariga huquqiy baho bering?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

29. 2024-yilning dekabr oyida yirik xususiy kompaniya – “Orient Agro” MChJ va mahalliy ishlab chiqaruvchi “Barkamol Plast” MChJ o'rtasida qurilish materiallarini yetkazib berish bo'yicha tuzilgan shartnoma doirasida nizo kelib chiqadi. Xaridor tomonidan to'lovning muayyan qismi amalga oshirilgan bo'lsa-da, yetkazilgan mahsulotlarda sifat kamchiliklari aniqlanadi. Shartnoma taraflari o'zaro da'volar bilan sudga murojaat qilish o'rniga mediatsiyaga murojaat etishga rozilik bildiradilar.

Mediator sifatida advokat Dilnoza Yoqubova tanlanadi. Mediatsiya jarayoni boshida tomonlar o'z manfaatlarini taqdim etib, advokat-mediatoridan huquqiy baho va muqobil yechim variantlarini so'rashadi. Shu bilan birga, xaridor “Orient Agro” vakili mediatsiya chog'ida o'z ixtiyoriy e'tirofini bildiradi va yetkazilgan mahsulotning kamchiliklari qayta ko'rib chiqilishini talab qiladi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

30. Bir IT kompaniyasida yangi rahbar tayinlandi. Yangi rahbar o'zgarishlar kiritishni rejalashtirgan, lekin xodimlar o'zgarishlardan xavotirda bo'lishdi va stress darajasi oshdi. O'zgarishlar xodimlar o'rtasida ishonchsizlik va stress yaratdi, bu esa ish muhitini salbiy ta'sir qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

31. Bir tashkilotda xodimlar o'rtasida ishonch pasaygan. Xodimlar o'zaro fikr almashmaslikda va o'zaro yordam ko'rsatishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Bunday holatga olib keladigan sababli omillari nimada?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

32. Diyor va Laylo — do'stlar va birgalikda ishlaydigan hamkasblar. Ular bir loyihada ishlashadi, lekin Diyor Layloning ish uslubidan norozi. Laylo esa Diyorning ishga bo'lgan yondashuvini haddan tashqari qat'iy deb hisoblaydi. Bu ziddiyat ularning do'stligi va ish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Nizo qanday usullar bilan hal qilinadi?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

33. Sud majlisida tajribali advokat A. jinoyat ishi bo'yicha ayblanuvchini himoya qilmoqda. Sudya unga savol berganida, advokat ohangida bepisandlik va tanbeh aralashgan holda javob qaytardi: “Siz ham bu savolni har safar takrorlayverasiz, axir javob allaqachon aytilgan-ku...”

Bunday so'z va ohang sudya tomonidan hurmatsizlik sifatida qabul qilindi. Natijada advokatga **ogohlantirish** berildi. Sud jarayoni bir muddat to'xtatildi hamda advokat haqida **Advokatlar palatasiga** shikoyat yuborildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

34. Jinoyat ishi bo'yicha sud tergovni tugallanib, taraflar muzokarasiga o'tilgach advokat-himoyachi Rustamov og'zaki muzokara qildi va yozma nutqini sudga taqdim qildi. Sud hukmi tayyor bo'lgach Rustamov hukmni o'qib chiqib, u tomonidan sudga yengillashtiruvchi holat sifatida aytilgan sudlanuvchining 2-guruh nogironi ekanligi yengillashtiruvchi holat sifatida inobatga olinmaganiga guvoh bo'ldi. Rustamov bu haqida qabuliga kirib, sudyaga e'tiroz bildirdi.

Sudya esa Rustamov o'zining yozma himoya nutqida buni yozmaganini aytib, shu sababli hukmda yozilmaganini, agarda yozma himoya nutqida bo'lganida va nogironlik guvohnomasidan nusxa berilganda inobatga olgan bo'lishini aytdi. Rustamov og'zaki nutqida so'zlab o'tganini iddao qildi.

Advokat qanday xatoga yo'l qo'ygan bo'lishi mumkin? Sudya qanday xatoga yo'l qo'ygan bo'lishi mumkin? Mazkur holatda sud majlisi bayonnomasi qanday ahamiyatga ega? JPKning 450-moddasi ushbu holatda qanday ahamiyatga ega?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

35. Granada davlatida 2022-yilda prezidentlik saylovi o'tkazilishi rejalashtirilgan. 5 yil avval o'tkazilgan saylovda saylovchilarning 30 foizidan ortig'i muddatidan avval ovoz berishda qatnashgan. Ushbu mamlakatdagi oppozitsiya vakillari muddatidan avval ovoz berish saylov natijalarini soxtalashtirish imkoniyatini oshiradi deb hisoblaydi. Ushbu davlat fuqarolari bo'lgan Aleks hamda Bremen saylovchilar muddatidan avval ovoz berishda qatnashmaslik huquqiga ega ekanliklarini tushuntirish maqsadida, shaharning markaziy maydonlaridan birida 50 kishilik namoyish o'tkazish yuzasidan Gdansk shahar ma'muriyatiga murojaat qilishadi. Shahar ma'muriyati murojaat mualliflari "Granada Respublikasida ommaviy tadbirlarni o'tkazish to'g'risida"gi qonun asosida qabul qilingan 1121-sonli qaror talablariga (1121-son qarorga muvofiq namoyish faqatgina shahar chekkasidagi joyda o'tkazilishi hamda uni tashkil etayotgan shaxslar shaharning xavfsizlik, tibbiy va obodonlashtirish xizmatlari bilan shartnoma tuzishlari kerak) javob bermaganligi sababli iltimosnomani rad etadi.

Aleks va Bremen shahar ma'muriyati qarori ustidan tuman sudiga murojaat qiladilar. Biroq shikoyatlari ko'rib chiqilmay rad etiladi. Keyingi bosqich sudlariga ham murojaat etish muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Arizachilar prokuraturaga nazorat tartibida ish ko'rish uchun shikoyat topshirmasdan BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasiga murojaat qiladilar. Bunga qarshi ravishda Granada davlati arizachilar mamlakatning barcha ichki himoya vositalaridan foydalanmaganliklari sababli Qo'mita ushbu ishni ko'rib chiqishga vakolatli emas deb hisoblaydi.

Ushbu shikoyat Qo'mita tomonidan ko'rib chiqilishi uchun qanday talablarga javob berishi kerak? Arizachilar tomonidan o'z davlatida nazorat tartibida shikoyat topshirmaganligi barcha ichki milliy himoya vositalaridan foydalanganlik talabiga qanchalik mos keladi?

Ushbu holatda Qo'mita 1966 yilgi Xalqaro paktning qaysi moddalarini qo'llashi lozim hisoblanadi?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

36. Vesteros davlatining kichik shaharlaridan birida 2020 yil 24 yanvarda qotillik sodir etilganligi haqida ichki ishlar organiga xabar kelib tushadi. Surishtiruvlar natijasida qotillikni sodir etgan shaxs fototasviri shakllantiriladi. Oradan 1 hafta o'tgach Vesteros fuqarosi Charlz fototasvirdagi shaxsga o'xshaganligi sababli qotillikda ayblanib hibsga

olinadi. Shaharda kamdan kam jinoyat sodir etilganligi sababli ushbu voqea ovoza bo'lib ketadi. Shahar politsiyasi boshlig'i jinoyatchi qo'lga olinganligi va u o'rnatilgan tartibda javobgarlikka tortilishi haqida ommaviy axborot vositalariga intervyu beradi.

Surishtiruv va tergov jarayonlarida olingan ma'lumotlar Charlzning aybsiz ekanligini ko'rsatadi. Shundan so'ng, u 2020 yilning mart oyida ozodlikka chiqarildi va unga qarshi jinoiy ish to'xtatildi. Charlz jinoyat sodir etishda ommaviy axborot vositalari orqali shahar politsiyasi boshlig'i tomonidan noqonuniy ravishda ayblanganligini aytib, mamlakat Ichki ishlar vaziriga moddiy va ma'naviy zararni qoplash talabi bilan murojaat qiladi biroq vazir ushbu masala yuzasida sudga murojaat etishni tavsiya etib shikoyatni rad etadi.

Vesteros davlati sudlariga shikoyatni ko'rib chiqish bo'yicha murojaatlari ham samarasiz yakunlanadi. Sudning fikricha ushbu holatda bo'ysunuv bo'yicha yuqori turuvchi tashkilotga murojaat qilishi lozim. Arizachi Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining 6-moddasi 2-qismi buzilgan deb topish uchun inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudiga murojaat qildi.

Vesteros davlati sudining ish yuzasidan bildirgan fikriga huquqiy baho bering.

Arizachi tomonidan Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudiga shikoyat topshirishda qanday talablarga rioya qilishi lozim?

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi mazkur ish bo'yicha qanday qaror qabul qilishi kerak?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

37. 2013-yilning 15-iyulida Antanta davlatida to'ntarish sodir etiladi. 2013-yil 2-avgustida Antanta hukumati BMT Bosh kotibini Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi paktning 4-moddasiga muvofiq olingan majburiyatlarga rioya qilmaslik to'g'risida xabardor qiladi. Shu vaqtda davlat to'ntarishida ayblanib davlatning 2 mingdan ortiq huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlari qo'lga olinadi, ishdan bo'shatiladi. Tiberiya davlatida uzoq yillardan beri istiqomat qiluvchi Antantaning 3 nafar fuqarosi ham to'ntarishda ayblanib tiberiya qonunchiligiga ko'ra xavfsizlik kuchlari tomonidan qo'lga olinadi hamda Antantaga ekstraditsiya qilinadi. Jabrlanuvchilarning so'zlariga ko'ra, ularni ekstraditsiya qilish bo'yicha sud jarayoni o'tkazilmagan, qo'lga olinish sabablari, ularga qo'yilayotgan ayblar, ularning ishiga oid materiallar haqida ma'lumot berilmagan. Bir marta tiberiya politsiya mahkamasida advokat bilan qisqa uchrashuvga ruxsat berilgan. Antantaga ekstraditsiya qilingailigidan so'ng ular noma'lum joyda saqlangan, ular bilan shafqatsiz munosabatda bo'lingan hamda ularning Tiberiyada yashovchi yaqinlariga bu haqida ma'lumot berilmagan hamda faqat bir marta sudga keltirilgan.

Jabrlanuvchi 3 nafar fuqaro so'zlariga ko'ra Antanta hukumati Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6, 7, 9, 10, 14-moddalari buzgan hamda ish Qo'mita tomonidan ko'rib chiqilishi kerak. Hukumatning fikriga ko'ra, ushbu ish Qo'mitaning vakolat doirasiga kirmaydi, sababi fuqarolar milliy darajadagi barcha sud va ma'muriy himoya vositalaridan foydalanib bo'lganlaridan so'ng, ular qo'lga olish haqidagi qaror ustidan Konstitutsiyaviy sudga shikoyat berishlari kerak edi. Chunki davlat to'ntarishi bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqishda Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi davlatning Konstitutsiyaviy sudini shaxslar Yevropa sudiga murojaat qilishdan avval foydalanishi lozim bo'lgan samarali himoya vositasi deb hisoblagan. Boshqa tomondan, jabrlanuvchilar tomonidan keltirilgan moddalarni favqulodda vaziyat sababli BMT Bosh kotibiga yuborilgan ogohlantirish xabariga ko'ra, normalarni buzish sifatida baholanmaydi.

Ushbu vaziyatda jabrlanuvchi shaxslarning qanday huquqlari buzilayotganligini, ular keltirgan dalillar yuqoridagi moddalarga mosligini aniqlang.

Davlatning favqulodda vaziyatlarda inson huquqlari bo'yicha majburiyatlardan chekinishi mumkinligini xalqaro-huquqiy jihatdan tahlil qiling. Xalqaro majburiyatlarni bajarmaslikning chegarasi bormi?

Ushbu ishda Antanta davlatini jabrlanuvchi davlat sifatida ko'rish mumkinligini tahlil qiling. Antanta davlatining Inson huquqlari bo'yicha qo'mitaning ushbu ish bo'yicha vakolatga ega emasligi haqidagi asoslari inson huquqlarining asosiy standartlariga qanchalik mos keladi?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

38. Jeroniya federativ davlat bo'lib, uning hududidagi Velasku o'lkasini terrorchilar egallab olganidan so'ng ikki yil davomida o'lkani terrorchilardan ozod qilish bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilayotgan edi. 2021 yil 23 mart oqshomida Jeroniya davlatidagi separatistik harakatining qurolli terrorchilari mazkur davlatdagi Freda shahri teatrida 800 dan ortiq odamni garovga oldi hamda teatr binosini minalashtirdi. Terrorchilar Jeroniya qo'shinlarini Velasku o'lkasidan zudlik bilan olib chiqib ketish shartini qo'yishadi. Garovdagilarni ozod qilish bilan bog'liq muzokaralar natijasiz yakunlandi, o'z navbatida terrorchilar tomonidan bir necha garovga olinganlar o'ldiriladi.

Shundan so'ng Jeroniya xavfsizlik xizmati boshchiligida qutqaruv operatsiyasini o'tkazishni rejalashtiradi. 2021 yil 26 mart kuni tongda Jeroniya maxsus xizmatlari binoning ventilyatsiya tizimi orqali binoga gaz yuboradilar (milliy qonunchilik terrorchilarga qarshi qurol va maxsus vositalardan foydalanishga ruxsat beradi). Bir necha daqiqadan so'ng deyarli barcha terrorchilar gaz ta'sirida hushidan ketadi, maxsus bo'linma binoga kirib, ularning aksariyatini o'ldiradi. Garovga olinganlar esa tezda binodan evakuatsiya qilinib shifoxonalarga jo'natiladi. Biroq, taxminan 125 nafar garovga olingan voqea joyida, ularni tashish vaqtida yoki kasalxonada vafot etadi. Ushbu holat yuzasidan jinoiy ish qo'zg'atiladi, biroq keyinchalik qutqaruv operatsiyasini rejalashtirish va o'tkazishni tergov qilmaslikka qaror qilindi. Garovga olinganlarning ommaviy o'limining rasmiy izohi shunda ediki, vafot etganlar zalda garovga olinishi tufayli zaiflashgan yoki og'ir kasal bo'lgan. O'z navbatida ekspertiza xulosasida insonlar o'limi bilan gazning qo'llanilishi o'rtasida sababiy bog'lanish mavjud emasligi qayd etilgan.

Arizachilar (garovga olinganlar yoki qutqaruv operatsiyasi vaqtida halok bo'lgan garovga olinganlarning qarindoshlari)ning jinoiy ish qo'zg'atish to'g'risidagi keyingi murojaatlari va ma'naviy zararni qoplash to'g'risidagi da'volari rad etildi. Arizachilar Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudiga murojaat qilishga qaror qilishadi.

Arizachilar tomonidan Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudiga shikoyat topshirishda qanday talablarga rioya qilishi lozim? Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi mazkur ish yuzasidan qo'llashi mumkin bo'lgan normalarni tahlil qiling.

Ushbu vaziyatda qutqaruv operatsiyasining xatti-harakatlariga huquqiy baho bering.

Qutqaruv operatsiyasini tergov qilmaslik haqidagi qarorning huquqning umumiy prinsiplariga muvofiqligi nuqtai nazaridan tahlil qiling.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

39. Toshkent xalqaro aeroportida U-Tair reysi bilan Pokistondan uchib kelgan P.ismli Pokiston fuqarosi samalyot qo'nishidan so'ng huquqni muhofaza qiluvchi organlari hamda bojxona hodimlari tomonidan amalga oshirilgan tekshiruvi natijasida bu shaxsdan fotoapparat g'ilofida saqlangan 2,5 gm heroin kukuni olib qo'yilib xibsga olinadi. P.ismli

fuqaro esa bunga javoban bu geroin moddasini o'zining iste'moli uchun olganligini qayd etadi.

Mazkur vaziyatga huquqiy baho bering. O'zingizning javobingizda quyidagi savollarga e'tibor bering:

Sud tomonidan P.shaxsning hatti-harakatlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 276-modda, 2-qismida ko'rsatilagan normalar asosida kvalifikatsiya qilinadi.

Sudning qarori jinoyat predmetining miqdoriy xususiyatidan kelib chiqib to'g'ri kvalifikatsiya qilinganmi?

Sudning qarori Pokiston fuqarosi P. tomonidan sodir etilgan qilmish oqibatida zarar yetkazilgan obyektlarning son, sifat hamda boshqa hususiyatlaridan kelib chiqib to'g'ri qo'llanilganmi?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

40. Pokiston fuqarosi M. Aeroflot aviakompaniyasiga tegishli samalyotda Londondan Moskva orqali Dehliga uchib ketayotib, "Sheremeteva-2" aeroportiga qo'nish chog'ida samalyot yo'lovchilaridan birini garovga olib ekipajdan samalyot yo'nalishini Iroqqa o'zgartirishni talab qiladi. Ekipaj a'zolari hamda yo'lovchilarning xatti-harakatlari bilan M.ismli shaxs qurolsizlantirilib qo'lga olindi.

Mazkur vaziyatga huquqiy baho bering. O'zingizning javobingizda quyidagi savollarga e'tibor bering:

M.ismli Turkiya fuqarosini qaysi davlat jinoyat qonunchiligi bilan javobgarlikka tortiladi?

Davlatlar o'rtasida hududiy hamda boshqa masalalar bo'yicha yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni hal etish uchun xalqaro hamjamiyat tomonidan qanday huquqiy vositalar ishlab chiqilgan? Mazkur huquqiy vositalar qaysi xalqaro hujjatlarda bayon qilingan?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

41. Portugaliya fuqarosi Leyla Almada shahri yaqinidagi yerlardan birida oilasi bilan yashar edi. 2019-yil mart oyida uning uyi yaqinida teri ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zavodlarning suyuq va qattiq chiqindilarini qayta ishlash korxonasi ish boshladi. Zavod foydalanishga topshirilgandan so'ng darhol undan ajralib chiqadigan zararli gazlar ko'plab mahalliy aholi, jumladan, arizachining sog'lig'ining yomonlashuviga, hayotida jiddiy noqulayliklarga olib keldi. Natijada u yerdagi fuqarolar shahar hokimiyati tomonidan vaqtinchalik boshqa yerga ko'chirildi. 2019-yil sentyabrda shahar hokimiyati tashkil etilgan ekspert komissiyasining xulosasini inobatga olib, korxonada bir qator ishlab chiqarishlarni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qildi. Leyla uyiga qaytganidan so'ng, sog'lig'i yomonlashishda davom etdi. Korxona atrofi qanday ifloslanayotganini, hudud aholisining turmush sharoiti qanday yomonlashayotganini ko'rdi. Shundan so'ng 2020-yil 10-yanvarda tuman sudiga shaxsiy hayotiga hokimiyatning noqonuniy aralashayotganligi va sog'lig'iga xavf tug'ilayotganligi haqida da'vo kiritadi, biroq u rad etiladi. Oliy sudga berilgan apellyatsiya da'vo ham rad etiladi. 2021-yil fevral oyida Konstitutsiyaviy sud keltirilgan shikoyatni yetarlicha asoslanmagan deb topadi. Shundan so'ng, Leyla Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi yevropa konvensiyasining 8-moddasi va 3-moddalari buzilishi mavjud deb Inson huquqlari bo'yicha yevropa sudiga shikoyat yuboradi.

Ish Yevropa sudi tomonidan ko'rishga qabul qilingan vaqtda, 2022-yil 28-fevralda arizachi va uning oilasi shahar ma'muriyati tomonidan puli to'langan shahar markazidagi

xonadonga ko‘chib o‘tishadi. Chiqindini qayta ishlovchi korxona esa atrof-muhitga ziyon yetkazganligi uchun faoliyati to‘xtatiladi. Portugaliya hukumati mazkur holatlarni hisobga olib, shikoyat ob’ektida keltirilgan masalalar barham topgan, Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi tomonidan ishni ko‘rishni tugatish lozim deb hisoblaydi.

Arizachi tomonidan Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudiga shikoyat topshirishda qanday talablarga rioya qilishi lozim? Jabrlanuvchi tomonidan keltirilgan shikoyatlarning asosiligi va u tomonidan keltirilgan normalarni tahlil qiling.

Arizachi va oila a’zolarining yangi uyga ko‘chib o‘tganligi bilan huquqlarining buzilishi yakunlangan degan xulosaga kelish mumkinmi? Javobingizni asoslang.

Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi arizachining murojaati hamda hukumatning ishni tugatish haqidagi so‘rovi bo‘yicha qanday to‘xtamga kelishi lozim?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

42. 2025-yil aprel oyida jinoyat ishi doirasida 16 yoshli A.X. og‘ir o‘g‘irlik jinoyatida gumon qilinib, ichki ishlar bo‘limiga olib kelinadi. So‘roq tergovchi tomonidan darhol o‘tkaziladi. So‘roq paytida A.X. bilan na advokat, na ota-onasi yoki qonuniy vakili ishtirok etadi. A.X. psixologik bosim ostida aybini tan olgan ko‘rsatma beradi. Shundan so‘ng bayonnoma rasmiylashtiriladi va sudga yuboriladi. Sudda himoyachi ushbu so‘roq qonunga zid o‘tkazilganligini aytib, bayonnomanani dalil sifatida rad etishni so‘raydi. Tergovchi esa pedagog yoki psixologni chaqirish majburiy emasligini, shuningdek aybni tan olgan ko‘rsatma yetarli asos ekanini bildiradi.

Ushbu holatda tergovchi va surishtiruv organi qanday qonunbuzarliklarga yo‘l qo‘ygan? Bu ko‘rsatma sudga qonuniy dalil bo‘la oladimi?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

43. 1994-yilgi milliy ozchiliklarga mansub shaxslarning huquqlarini ta’minlash to‘g‘risidagi Konvensiyani imzolash chog‘ida, Ozarbayjon Respublikasi o‘zining alohida fikrini qayd etdi. Unga ko‘ra, milliy ozchiliklarga mansub shaxslarning huquqlarini ta’minlash Ozarbayjon Respublikasining Konstitutsiyasi va milliy qonunchiligiga zid bo‘lmagan hajm va doirada amalga oshirilishi belgilandi.

Ukraina ham o‘z navbatida Konvensiyani “Ukraina qonunchiligini inobatga olgan holda” qo‘llashini ta’kidlovchi izoh kiritdi. Ushbu izohlar amaldagi xalqaro shartnomalar huquqiga muvofiq keladimi?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

44. Tunis BMTning ko‘p tomonlama xalqaro shartnomasi ishtirokchisi sifatida shartnomaning bir qator qoidalariga noroziligini bildirdi va ularni talqin qilishni so‘radi. Shartnomaning boshqa ishtirokchisi AQSh Tunisning e’tirozlari asossiz ekanini, chunki Tunisning noroziligi shartnomaning o‘ziga emas, balki faqat muqaddimasiga taalluqli ekanini ta’kidladi. Ko‘p tomonlama xalqaro shartnoma normalarini talqin qilish huquqi kimga tegishli? Tunisning e’tirozlari qonuniymi?

Xalqaro shartnomalarni talqin etishning qo‘shimcha vositalariga nimalarni kiritish mumkin?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

45. Xitoy atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro shartnomani imzolagani holda, uning qoidalarini bajarishdan bosh tortdi.

Xitoyning huquqiy nuqtai nafari shundayki, shartnoma BMT Kotibiyatida ro‘yxatdan o‘tkazilmaguncha mamlakat uchun majburiy kuchga ega bo‘lolmaydi.

Xalqaro shartnomani ro'yxatdan o'tkazish uning yuridik kuchga kirishi uchun qanday ahamiyatga ega? Xalqaro shartnomalarni ro'yxatga olish tartibi qaysi xalqaro hujjatlar bilan tartibga solinadi? Xitoyning pozitsiyasi qonuniymi?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

46. Fransiya jinoiy ishlar bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi ratifikatsiya qilinishi lozim bo'lgan bitimni imzoladi. Keyinchalik, ratifikatsiyadan oldin, ichki ishlar vaziri ushbu kelishuvga shubha bildirdi va unga zid bo'lgan qonun loyihasini taqdim etdi.

Fransiya qonunni qabul qilish orqali Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining 18-moddasini buzadimi?

- qaysi shartnomalar ratifikatsiya qilinishi shart?
- ratifikatsiyadan oldin qanday hujjat qabul qilinishi kerak?
- ushbu vaziyatda Fransiya Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasini yoki jinoiy ishlar bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi bitimni buzadimi?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

47. Sut mahsulotlarini yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzayotgan Rossiya va Ukraina kompaniyalari unda "Arbitraj" deb nomlangan bandni kiritib, quyidagilarni qayd etdilar: "Sotuvchi va xaridor ushbu shartnomadan yoki u bilan bog'liq ravishda kelib chiqadigan nizo va kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal qilish uchun barcha choralarni ko'radi. Agar tomonlar kelishuvga erisha olmasa, ushbu shartnomadan yoki u bog'liq ravishda kelib chiqishi mumkin bo'lgan barcha nizo va kelishmovchiliklar da'vogar joylashgan joyda ko'rib chiqiladi.

Shartnomaning yuqoridagi qoidasining huquqiy tabiatiga baho bering. Tomonlar shartnomaga ushbu bandni kiritishi maqsadga muvofiqmi? Vaziyatni xalqaro huquq qoidalari va prinsiplari asosida tahlil qiling.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

48. "Mallarini" OAJ (Italiya) Belorussiya savdo-sanoat palatasi huzuridagi Xalqaro arbitraj sudiga bergan da'vo arizasida javobgar - «Kvant» MChJ (Belorussiya) bilan arbitraj bitimi elektron pochta orqali xabar almashish yo'li bilan tuzilganligini bayon etib, tegishli xabarlarning nusxalarini da'voga ilova qildi. Arbitraj ishida «Kvant» MChJ vakillari da'vogar bilan elektron pochta orqali yozishmalar haqiqatan ham amalga oshirilganligini, natijada BelSSP huzuridagi Xalqaro arbitraj sudida nizoni ko'rib chiqish to'g'risida kelishuvga erishilganligini tasdiqladi. Biroq, arbitraj tarkibi BelSSP huzuridagi Xalqaro arbitraj sudi qoidalaridagi «nizolarni arbitrajga topshirish bo'yicha kelishuv, faqat xatlar, telegrammalar va fakslar almashinuvi asosidagina tuzilishi» haqidagi qoidadan kelib chiqib, ishni ko'rib chiqish vakolatiga ega emasligini, ish yuritishni tugatganligini ma'lum qildi.

Arbitraj tarkibi harakatlari to'g'rimi? Tomonlarning ushbu arbitraj nizolarni hal etish to'g'risidagi kelishuvi quyidagi vositalar orqali erishilganda, arbitrajning javobi o'zgarar edimi:

- a) ijtimoiy internet tarmoqlaridagi xabarlar (Facebook va boshqalar);
- b) SMS xabarlar;
- v) telefon messenjerlaridagi xabarlar (Viber va boshqalar)?

Agar javobgar da'vogar bilan yozishmalar olib borilganligini va nizoning arbitrajda ko'rilishi to'g'risidagi kelishuvni rad etsa, qanday oqibatlar kelib chiqadi?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

49. Avstriyaning “FREY WILLE” kompaniyasi Toshkent shahar iqtisodiy sudiga “Galant” xususiy korxonasi bilan tuzilgan parfyumeriya mahsulotlari oldi-sotdi shartnomasini bekor qilish to‘g‘risidagi da’vo bilan murojaat qildi. Javobgar oldi-sotdi shartnomasida arbitraj izohi moddasi mavjudligiga ishora qilib, da’vo arizasini ko‘rib chiqmasdan qoldirish to‘g‘risida iltimosnoma kiritdi. Ushbu iltimosnomani ko‘rib chiqishda sudya oldi-sotdi shartnomasi taraflar tomonidan ikki nusxada teng kuchga ega bo‘lgan holda tuzilganligini, Avstriya kompaniyasining nusxasi ingliz tilida, O‘zbekiston kompaniyasining nusxasi rus tilida bo‘lganligini aniqladi. Shartnomaning rus tilidagi matnida nizolarni O‘zbekiston savdo-sanoat palatasi huzuridagi Xalqaro arbitrajda ushbu arbitraj qoidalariga muvofiq hal etilishi, ingliz tilidagi kelishuv matnida nizolarni shu arbitrajda, biroq YUNSITRAL arbitraj qoidalariga muvofiq hal etilishi nazarda tutilgan. Ushbu tafovutlarni hisobga olgan holda arbitr taraflarning nizolarni arbitrajda hal qilishga oid kelishuvini tuzilgan deb topish mumkin emas degan xulosaga keldi va iltimosnomani qanoatlantirishni rad etdi.

Arbitrning harakatlariga baho bering.

Ushbu holatda mazkur nomuvofiqlik qanday tartibda hal etiladi. Bu kabi arbitraj kelishuvlarining huquqiy tabiati haqida fikr yuriting!

Vaziyatga huquqiy baho bering.

**“Advokatlarning malakasini oshirish” o‘quv kursidanyakuniy sinov imtihonini
o‘tkazish uchun**

SAVOLLAR

1. Yangi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyati (*Сущность и содержание новой Конституции Республики Узбекистан*).
2. Advokatlik faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ahamiyati (*Значение Конституции Республики Узбекистан в деятельности адвоката*).
3. Korruptsiya tushunchasi va uning turlari (*Понятие коррупции и его виды*).
4. Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarning turlari (*Виды коррупционных правонарушений*).
5. Advokatlik tuzilmalari ish yurituv hujjatlari va ularni rasmiylashtirish tartibi (*Документы адвокатский структур и порядок их оформления*).
6. Advokatlik tuzilmalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish va tugatish elektron tizimi (*Электронная система государственной регистратсии, перерегистратсии и прекращения адвокатских структур*).
7. Advokatura faoliyatiga oid litsenziya olish uchun ariza berish va uni ko‘rib chiqish tartibi (*Порядок подачи заявления на получение адвокатской лицензии и порядок его рассмотрения*).
8. Advokatura faoliyatiga oid litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish va tugatish (*Приостановление и прекращение действия лицензии на занятие адвокатской деятельностью*).
9. Advokatlik faoliyatini soliqqa tortish tartibi (*Порядок налогообложения адвокатской деятельности*).
10. Advokatlar elektron reestri va advokatlarning shaxsiy elektron kabineti (*Электронный реестр адвокатов и личный электронный кабинет адвокатов*).
11. Advokatning kasbiy mustaqilligining tushunchasi (*Понятие профессиональной независимости адвоката*).
12. Advokat maqomini to‘xtatib turish va tiklash tartibi (*Порядок приостановление и восстановление статуса адвоката*).
13. Advokatga nisbatan intizomiy ish yuritish tartibi (*Порядок дисциплинарного производства в отношении адвоката*).
14. Fuqarolik ishlari bo‘yicha advokatning sud muzokaralarida ishtiroki (*Участие адвоката по гражданским делам в судебных переговорах*).
15. Fuqarolik ishlar bo‘yicha sud sidda ishtirok etadigan taraflarning huquq va majburiyatlari (*Права и обязанности сторон, участвующих в суде по гражданским делам*).
16. Fuqarolik-shartnomaviy munosabatlarida majburiyatlar bajarilishining ta’minlanish masalalari (*Вопросы обеспечения исполнения обязательств в гражданско-договорных отношениях*).
17. Iqtisodiy sud muzokaralarida advokatning ishtirokining xususiyatlari (*Особенности участия адвоката в переговорах в хозяйственном суде*).

18. Iqtisodiy sudda ishtirok etadigan taraflarning huquq va majburiyatlari (*Права и обязанности сторон, участвующих в хозяйственном суде*).

19. Neustoyka tushunchasi va uning turlari (*Понятие неустойки и ее виды*).

20. Kafillik tushunchasi va uning huquqiy oqibatlarini (*Понятие гарантии и ее правовые последствия*).

21. Kafolat tushunchasi va uni amalda qo'llash muammolari (*Понятие гарантии и проблемы ее практического применения*).

22. To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishlarda advokat ishtirokining o'ziga xos jihatlari (*Особенности участия адвоката в делах о банкротстве*).

23. Yer munosabatlariga oid nizolarni sudda ko'rish amaliyoti (*Практика рассмотрения споров, связанных с земельными отношениями, в суде*).

24. Yer munosabatlariga oid nizolarning turlari (*Виды споров по земельным отношениям*).

25. Er-xotinning mol-mulklarini bo'lish to'g'risidagi nizolarda advokatning ishtiroki (*Участие адвоката в спорах о разделе имущества супругов*).

26. Er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari (*Имущественные права и обязанности супругов*).

27. Mehnatga oid nizolarni hal etishda advokatning o'rni (*Роль адвоката в разрешении трудовых споров*).

28. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunning mazmun-mohiyati, prinsiplari va amal qilish sohalari (*Сущность, принципы и сферы реализации Закона Республики Узбекистан "Об административных процедурах"*).

29. Davlat xizmatlari ko'rsatish yuzasidan o'rnatilgan ma'muriy reglament tushunchasi (*Понятие административных регламентов, установленных для предоставления государственных услуг*).

30. Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxs tushunchasi (*Понятие об административных органах и их должностных лицах*).

31. Ma'muriy organ mansabdor shaxslarining qarorlari ustidan shikoyat qilish tartibi (*Порядок обжалования решений должностных лиц административного органа*).

32. Ma'muriy ma'muriy hujjat, ma'muriy ish yuritish tushunchasi (*Понятие административно-распорядительного документа, административного производства*).

33. Ma'muriy shikoyatni berish muddati, ma'muriy hujjatning ijrosi (*Срок подачи административной жалобы, оформления административного документа*).

34. Jinoyat protsessida dalillar maqbulligi borasida qonunchilik va amaliyot (*Законодательство и практика о допустимости доказательств в уголовном процессе*).

35. Jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv jarayonida advokat ishtiroki (*Участие адвоката в процессе дознания по уголовным делам*).

36. Jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergov jarayonida advokatning roli (*Роль адвоката в предварительном расследовании уголовных дел*).

37. Jinoyat ishlari bo'yicha sudda ishtirok etayotgan advokatning huquq va majburiyatlari (*Права и обязанности адвоката, участвующего в уголовном процессе*).

38. Jinoyat protsessual qonunchiligiga muvofiq dalillar tushunchasi va turlari (*Понятие и виды доказательств по уголовно-процессуальному законодательству*).

39. Dalillarni to'plashda himoyachining roli (*Роль защитника в сборе доказательств*).

40. Himoyachining dalillarni to'plash va taqdim etish bo'yicha huquqlarining normativ asoslari (*Правовые основы прав защитника на сбор и представление доказательств*).

41. Himoyachi tomonidan to'plangan va taqdim etilgan dalillar bo'yicha tergovchining majburiyatlari (*Обязанности следователя по собранным и представленным защитой доказательствам*).

42. Dalillarning maqbul emas deb topish asoslari (*Основания признания доказательств недопустимыми*).

43. Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv tushunchasi va uni tuzish shartlari (*Понятие соглашения о признании вины и условия его заключения*).

44. Aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnoma va uni berish tartibi (*Порядок ходатайства о заключении соглашения о признании вины и порядок его заявления*).

45. Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvning mazmuni (*Содержание соглашения о признании вины*).

46. Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining ijro etish jarayonida advokat ishtirokining xususiyatlari (*Особенности участия адвоката в процессе исполнения судебных актов и актов иных органов*).

47. Raqamlashtirishning advokatura faoliyatidagi ahamiyati (*Значение цифровизации в деятельности адвоката*).

48. Intellektual mulk huquqlarni himoya qilishda advokat ishtiroki (*Участие адвоката в защите прав интеллектуальной собственности*).

49. Soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarni himoya qilish xususiyati (*Особенности защиты лиц, совершивших налоговые правонарушения*).

50. Advokatlik faoliyatida stressga chidamlilikni rivojlantirish ko'nikmalari (*Навыки развития стрессоустойчивости в адвокатской работе*).

51. Advokat faoliyatida samarali muloqot psixologiyasi (*Психология эффективного общения в деятельности адвоката*).

52. Advokat faoliyatida nizoni konstruktiv hal etishning samarali usullari (*Эффективные методы конструктивного разрешения споров в деятельности адвоката*).

53. Advokatning ta'sirli nutqi tushunchasi (*Понятие впечатляющей речи адвоката*).

54. Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro va milliy mexanizmlar (*Международные и национальные механизмы защиты прав человека*).

55. Qiynoqlar holatlarini aniqlash va oldini olishda advokat o'rni (*Роль адвоката в выявлении и предотвращении случаев пыток*).

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Advokatlik faoliyatining kafolatlari. Advokatlarning ijtimoiy himoyasi. Advokatura sohasini raqamlashtirish. "Yuridik yordam" axborot tizimi. Advokatlar palatasi faoliyati: rivojlanish istiqbollari. Advokatlar tomonidan da'vo, ariza va shikoyatlarni elektron shaklda taqdim etish. Advokatning sud muzokaralarida ishtiroki. Majburiyatlar. Ishga tiklash. Mehnatga oid nizolar. Yer munosabatlariga oid nizolarn. Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish. Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish. Jinoyat protsessida dalillar maqbulligi. Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv instituti. Advokatning muloqot olib borish ko'nikmalari. Liderlik. Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro va milliy mexanizmlar. Advokatlar mustaqilligi, kasbiy majburiyatlari va javobgarligiga oid xalqaro standartlar. Qiynoqlar holatlarini aniqlash va oldini olish tizimi.